

KANADA OLIY HARBIY TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xabibulla Bekpulatov

*O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Xorijiy harbiy kadrlarni tayyorlash maxsus fakulteti boshlig‘i*

ANNOTATSIYA

Maqolada Kanada oliy harbiy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari, Kanada oliy harbiy ta’lim muassasalari faoliyati va harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi ko‘rib chiqilgan. XVIII asrdan hozirgi kungacha Kanadaning harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar, ilmiy maqolalar va adabiyotlar o‘rganib chiqilgan. Shuningdek, Kanadaning hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan oliy harbiy ta’lim muassasalari va ularning o‘quv-tarbiyaviy jarayoni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi, harbiy ta’lim muassasalari, harbiy muktab, taktika, harbiy muhandislik, o‘quv-tarbiyaviy jarayon.

1867-yilda Shimoliy Amerikadagi bir qancha Britaniya mustamlakalarining Konfederatsiyasi va ittifoqi Kanada hukmronligi sifatida yangi mamlakatning harbiy xavfsizligi va uning Qurolli Kuchlari holatidan xavotirga to‘sha boshladi. O‘q otish qurollari va artilleriyalarning ko‘payishi, temir yo‘llardan harbiy transportda foydalanish va elektr telegraf orqali aloqaning yaxshilanishi kabi so‘nggi kashfiyotlar urush olib borishga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, ular harbiy kadrlar tayyorlashga qo‘srimcha talablar qo‘ydilar. Kanada rahbarlari mamlakatning birinchi mudofaa chizig‘i sifatida ko‘p asrlik an’ana bo‘lgan fuqarolar militsiyasiga sodiq qolishgan bo‘lsa-da, ular ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish militsiyani mustahkamlaydi, degan xulosaga kelishdi.

1864-1865 yillarda Kanadaning oltita shahrida ingliz garnizoni mohir harbiylari tomonidan boshqariladigan militsiya zabitlarini tayyorlash uchun maxsus maktablar ochildi. 1871-yilda Britaniya qo‘sminlari Kanadadan chiqib ketganidan keyin Kanada militsiyasi bu maktablarda harbiy kadrlar tayyorlashni davom ettirdi. 1867-1868 yillarda Ottava, Kingston va Kvebekda shaharlarida artilleriya harbiy mutaxassislarini tayyorlash uchun harbiy maktablar ochildi.

1880-yillarda tashkil etilgan shunga o‘xshash piyoda va otliq harbiy maktablar bilan birgalikda ular Kanadaning kichik maxsus harbiy kuchlarini asta-sekin paydo bo‘lishiga asos solindi.

1873-yilda Maxsus harbiy kuchlarning hisobotida general-ad'yutant vazifasini bajaruvchi polkovnik Uoker Pauell boshqa turdag'i harbiy maktablarni yaratish fikrini

ilgari surdi va bu harbiy maktablarda yuqori darajadagi ofitserlar, komandirlarni tayyorlaydigan uzoq muddatli kurslarni tashkillashtirish va o‘qitish extiyoji borligini aytdi. Buni faqat kanadalik zabitlarni Buyuk Britaniyadagi harbiy maktablarga o‘qishga yuborish yoki Kanadada shunday maktab ochish orqali ta’minlash mumkin, deb ta’kidladi u. Kanada-Britaniya aloqalarini mustahkamlash bo‘yicha kengroq dastur doirasida 1872-yildan beri general-gubernator bo‘lgan Dufferin ham militsiyani qayta isloh qilingan va harbiy kollejni yaratishni qo‘llab-quvvatladi. Dufferin Britaniya harbiy kollejini mustamlaka Kanada sharoitida shunchaki qayta tiklash mumkinligiga ishonmadi. Avvalroq u Britaniyada harbiy ta’lim bo‘yicha Qirollik komissiyasini boshqargan edi. U Nyu-Yorkdagi West-Poyntda Qo‘shma Shtatlar Harbiy Akademiyasida (1802-yilda tashkil etilgan) dasturning aspektlarini, xususan, piyoda va otliq qo‘sishlar bilan bir qatorda muhandislik va artilleriya bo‘linmalarida ta’lim berishni ijobiy baholadi.

1873-yilda Dufferinning shaxsiy kotibi polkovnik Genri Fletcher West-Poyntning yangi dunyo demokratik an’analari Britaniyaning “aristokratik” institutlariga qaraganda Kanadaga ko‘proq mos kelishini aytdi. West-Point Amerika jamiyatining barcha qatlamlaridan nomzodlarni nisbatan oson saralash imtihonlari orqali qabul qildi va ularni matematika va muhandislik bo‘yicha to‘rt yillik qat’iy o‘qish dasturi orqali ofitserlarga aylantirdi.

Bosh vazir Aleksandr Makkenzi (1873-1878 yillardagi lavozimida), garchi mudofaa xarajatlarini kamaytirishga intilgan bo‘lsa ham, sobiq militsiya zebiti sifatida kuchning kamchiliklarini yaxshi bilardi. Torontolik Jorj T. Denison kabi siyosiy ittifoqchilar va boshqa militsiya ofitserlari tomonidan rag‘batlantirilgan Makkenzi harbiy kollej uchun zarur bo‘lgan nisbatan kichik xarajatlar mamlakatning kelajakdagi harbiy xavfsizligiga yaxshi va arzon sarmoya bo‘ladi, degan xulosaga keldi. Uning hukumati 1874-yil 15-mayda “Jamoatchilar palatasi” tomonidan qabul qilingan “Harbiy taktika”, “Istehkom”, “Muhandislik” va umumiy ilmiy bilimlar bilan bog‘liq va zarur bo‘lgan fanlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha to‘liq ta’lim berish maqsadida “Kollejni tashkil etish to‘g‘risida” qonun loyihasini taklif qildi va harbiy kasbni mukammal bilish uchun, qo‘mondonlik va malakali shtab ofitserlarini tayinlash zarurligini aytdi.

Harbiy kollej Sent-Lorens daryosi va Ontario ko‘lining qo‘shilish joyida, Kingstонning eski garnizon shaharchasida joylashgan bo‘lib, unga Britaniya armiyasining qirolik muhandislaridan podpolkovnik Edvard Osborn rahbarlik qilgan, “yuqori ilmiy yutuqlar” sohibi, shuningdek harbiy sohada ko‘p yillik tajribaga ega ofitser edi. U 1876-yil 1-iyunda “Eski o‘n sakkizlar” nomi bilan tanilgan o‘zining birinchi kursantlar guruhini qabul qildi va 1878-yilda harbiy kollejni qirolicha Viktoriyadan Kanada Qirollik harbiy kolleji (Royal Military College) deb atashga ruxsat oldi. Garchi West-Point namuna sifatida bo‘lgan bo‘lsa ham, Britaniya harbiy

an’analari eng muhim bo‘lib qolaverdi. Harbiy kollejda xizmat qilayotgan harbiylar asosan britaniyaliklar bo‘lib, harbiy kiyim-kechak ham hatto harbiy o‘quvlar, strategik va taktik doktrinalar ham 1950-yillarga qadar britaniyaniki edi.

1952-yilda hukumat muntazam (regulyar) qo‘sishinlar uchun ofitserlarni tayyorlash rejasini (Regular Officer Training Plan) joriy etdi. Bu Kanada Sovuq Urush davrida saqlab qolishi kutilayotgan nisbatan katta kuchlar uchun ofitserlarning etarli darajada ta’minlanishini uchun mo‘ljallangan edi. Hukumat barcha kursantlar uchun kamida Kanada Qurolli Kuchlari uchun uch yil xizmat qilish va ’dasi evaziga kollejda o‘qish davri harajat to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oldi (keyinchalik bu muddat to‘rt yilga uzaytirildi).

Harbiy kollejning urushdan keyingi tarixi, shuningdek, Kanada jamiyati va siyosiy institutlaridagi kengroq o‘zgarishlarni aks ettirdi. 1969-yildagi rasmiy davlat tillari to‘g‘risidagi qonun harbiy kollejni rasmiy ravishda ikki tilli qildi va frantsuz tilida so‘zlashuvchi kanadaliklarning ko‘proq ro‘yxatga olinishiga olib keldi. Kollejga ilk bor 1980-yilda kursant sifatida o‘qishga kirgan qizlar asr oxirida umumiylashtirilgan kursantlar tarkibining 27 foizini tashkil qilgan.

1990-yillarda Kanadada etakchilik (liderlik), akademik tayyorgarlik va harbiy kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha keng ko‘lamlı munozaralar natijasida o‘quv rejalariga o‘zgartirildi, ta’lim dasturlari kengaytirildi va fuqarolik universitetlari bilan aloqalar kuchaydi, bu esa kollejning Kanada harbiy ta’limi markazidagi rolini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu jarayonning bir qismi sifatida kollej o‘z dasturining harbiy qismiga, ayniqsa harbiy liderlik (etakchilik) va harbiy etika sohalariga yana bir bor e’tibor qaratilgan.

Kanada Qurolli Kuchlarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda Kanada oliy harbiy ta’lim muassasalarini Kanada mudofaa vazirligiga buysunuvchi qo‘sishinlar turlari (Quruqlikdagi, Harbiy dengiz floti, Harbiy havo kuchlari) orqali boshqaruvi amalga oshiriladi. Kanadada harbiy ta’lim muassasalarining rivojlangan tizimi yaratilgan bo‘lib, bu mamlakat Qurolli Kuchlarini barcha talab qilinadigan harbiy mutaxassisliklar bo‘yicha malakali harbiy kadrlar bilan ta’minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda Kanada Qurolli Kuchlarida harbiy kadrlarni tayyorlash bo‘yicha 4 ta oliy harbiy ta’lim muassasasi faoliyat yuritadi.

Bular:

Kanada Qirollik harbiy kolleji;

Kanada Qurolli Kuchlari kolleji;

Saint-Jean Qirollik harbiy kolleji;

Adjudant-chef Robert Osside instituti.

Kanada Qirollik harbiy kolleji va Saint-Jean Qirollik harbiy kolleji ikkita bir-birini to‘ldiruvchi harbiy universitet maqomiga ega oliv harbiy ta’lim muassasalar hisoblanadi.

Kanada Qirollik harbiy kolleji Kanada Qurolli Kuchlaridagi ofitser va kursantlariga 1876-yildan bo‘yon hozirgi kunga qadar harbiy sohada ta’lim berib, Kanada Qurolli Kuchlarini harbiy kadrlar bilan ta’minlab turuvchi oliv harbiy ta’lim muassasasi hisoblanib kelmoqda. Harbiy sohada aniq ko‘nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgan harbiy tayyorgarlikdan farqli o‘laroq, harbiy ta’lim tinchlik va urushda Qurolli Kuchlarni samarali boshqarish uchun ofitserlarni kasbiy tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Tibbiyat, huquq va muhandislik sohalarida bo‘lgani kabi, Kanadada va boshqa davlatlarda so‘nggi 150 yildagi harbiy ta’lim tarixi ko‘p jihatdan harbiy xizmatning kasb sifatida rivojlanishiga parallel hissa qo‘shdi. Bu davrda harbiy ta’lim ofitserlar va kursantlarga maxsus bilimlarni etkazish vositasiga aylandi. Kanada Qurolli Kuchlari uchun ofitser kadrlarni tayyorlash dasturi kollejning eng yirik va boshlang‘ich ta’lim dasturidir. Bu kursantlarga to‘liq subsidiyalangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olish imkonini beradi. Dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan kursantlar oliv o‘quv yurti diplomi va ofitserlik guvohnomasiga ega bo‘ladilar. Bitiruvdan so‘ng ular Kanada Qurolli Kuchlarida keyingi xizmat faoliyatini davom ettirish maqsadida kichik ofitser lavozimini egallashlari mumkin. Bugungi kunda harbiy kollejda ikkala rasmiy tilda (fransuz va ingliz) bakalavriat va magistratura dasturlari asosida harbiy va gumanitar fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boriladi. Kollej, shuningdek, Kanadaning mudofaa maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash uchun kibermudofaa kabi sohalarda ixtisoslashgan tadqiqotlarni ham olib boradi. Kanadaning Milliy mudofaa qonuniga binoan Kanada Qirollik harbiy kolleji harbiy bo‘linma va universitet sifatida tashkil etilgan. Uning vazifasi kursantlar va ofitserlarni Kanada Qurolli Kuchlarida samarali harbiy xizmatga tayyorlash uchun o‘qitishdan iborat.

Kanada Qirollik harbiy kollejiining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

har ikkala rasmiy tilda (fransuz va ingliz) bakalavriat va magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv-jarayonini tashkillashtirish va olib borish;

etakchilik (liderlik) fazilatlarini, shu jumladan axloqiy tuyg‘ularni rivojlantirishga ko‘maklashish;

yuqori darajadagi jismoniy holatni targ‘ib qilish;

har ikkala davlat tilini (fransuz va ingliz) mukammal o‘zlashtirishga ko‘maklashish.

Kollejda 20 dan ortiq bakalavriat ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lib, ularning har biri harbiy soha (kasb) bilan bevosita bog‘liqidir. Kollej o‘z kampusida yadro reaktori, shamol tunnellari, yonmaydigan kamera, koinot kuzatuv rasadxonasi, o‘q-dorilar laboratoriysi, qurilish muhandislik laboratoriysi va kiberlaboratoriya kabi zamonaviy tadqiqot ob’ektlariga ega. Ba’zi tadqiqotlar maxfiy griflangan yoki

tasniflangan bo‘lib, ko‘pincha Kollejda harbiy operatsiyalarni bevosita qo‘llab-quvvatlash uchun olib boriladi.

Qirolik Harbiy Kolleji bakalavriat bosqichiga o‘qishga kirish uchun quyidagi umumiy talablар mavjud:

12 yillik o‘rta maktabni tugatgan, tegishli provinsiyadagi universitetga kirish uchun yetadigan reyting ballga ega nomzodlar;

o‘rta-maxsus kollejda 1-o‘quv yili 14 ta kursdan iborat universitetga tayyorlov kursini universitetga kirish uchun yetadigan reyting ball bilan tugatgan nomzodlar;

12 yillik o‘rta maktabni tugatgan yoki shunga teng o‘rta-maxsus kollejni tugatgan, universitetga kirish uchun yetadigan reyting ballga ega nomzodlar;

Kvebekda o‘rta-maktabning 5-sinfini tugatgan va Kvebekdagi Qirolik harbiy kollejini 1-yil tayyorlov kurslaridaga tahsil olgan;

Kanada Qurolli Kuchlarining ofitser kadrlarni tayyorlash dasturiga (Force Officer Training Program) a’zo bo‘lgan nomzodlar;

Kanada Qurolli Kuchlarining (Forces armées canadiennes) faol a’zosi bo‘lgan va Harbiy professional guruh uchun asosiy tayyorgarlikni muvaffaqiyatli yakunlagan;

Harbiy professional guruh uchun asosiy tayyorgarlikni o‘tmaganlar harbiy qism komandirining tavsiyanomasiga asosan;

Mudofaa vazirligi faol xodimlari;

Kanada Qurolli Kuchlarining faol a’zosining turmush o‘rtog‘i.

Nomzodlarni o‘qishga qabul bo‘yicha cheklovlar:

Kanada Qirollik harbiy kolleji hatto kirish talablari texnik jihatdan qondirilgan bo‘lsa ham, nomzodlarni umumiy akademik o‘zlashtirishga qarab rad etishi mumkin;

akademik sabablarga ko‘ra boshqa universitet yoki kollejni tark etishi kerak bo‘lgan nomzod, talab qilingan o‘qishdan keyin to‘liq o‘quv yili o‘tmaguncha qabul qilish uchun ko‘rib chiqilmaydi.

Kanada Qirollik harbiy kolleji boshqa kollej yoki universitetdan akademik sabablarga ko‘ra har qanday to‘xtatib turishni qo‘llab-quvvatlaydi va bu nomzod to‘xtatib turish bekor qilinmaguncha o‘qishga qabul qilish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda Kanada Qirollik harbiy kollejida quyidagi bakalavr ta’lim yo‘nalishlarida harbiy kadrlar tayyorlanadi:

Gumanitar fanlar: ingliz, fransuz, tarix;

Ijtimoiy fanlar: siyosatshunoslik, iqtisod;

Aniq fanlar: kimyo, informatika, matematika, fizika, kosmik fanlar;

Muhandislik mutaxassisliklari: aeronavtika, kimyoviy materialshunoslik, qurilish muhandisligi, kompyuter muhandisligi, elektrotexnika, mashinasozlik;

Harbiy va strategik fanlar.

Harbiy psixologiya va yetakchilik.

Biznes boshqaruvi.

Barcha o‘quv dasturlari ingliz va frantsuz tillarida o‘qitiladi.

Hozirgi kunda Kanada Qirollik harbiy kollejida 1668 ga yaqin kursantlar tahlil olishadi. Ularning ko‘pchiligini sirtqi ta’limda o‘qiydigan kursantlar tashkil qiladi. Biroq kollejning asosiy yadrosini kazarmalarda yashab o‘qiyotgan kursantlar tashkil qiladi. Ularning soni 1000 dan ortiqroq. Ular kollejning milliy harbiy libosi bo‘lgan qizil harbiy kiyimda yurishadi. Barcha kursantlar bo‘linmalari rota tarkibida tashkil etilgan. Kollejda 12 rota mavjud. Rotalar 4-6 guruhdan tashkil topgan. Guruhlarda yetakchi (lider) boshqalardan bilimi, jismoniy va boshqa xususiyatlari bo‘yicha eng yuqori reytinga ega kursant guruh lidi etib tayinlanadi va u guruhni boshqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Doktor Kameron Pulsifer., The royal military college of Canada: 1876 to the present.
2. The acting Adjutant General of Militia,. Lieutenant Colonel Walker-Powell, had in his Annual. Report for 1873 recommended the creation of a military school.
3. R.G. Moyles., The Blood and Fire in Canada: A History of the Salvation Army in the Dominion 1882-1976, Peter Martin Associates Limited, Toronto, 1977.
4. Scott Young., The Red Shield in Action, The Salvation Army, Toronto, 1949.
5. Canada in the Great War, Volume VI, Special Services, United Publishers of Canada, np. 1920.
6. Brown I. M., (1991). Lieutenant-general Sir Arthur Currie and the Canadian Corps 1917-1918: the evolution of a style of command and attack (Master’s thesis, University of Calgary, Calgary, Canada). Retrieved from <https://prism.ucalgary.ca.doi:10.11575/PRISM/17492>.
7. Paul Douglas Dickson.,A Thoroughly Canadian General: A Biography of General H.D.G. Crerar., P.D.Dickson is a strategic analyst and military historian at the Centre for Operational Research and Analysis, Department of National Defence.
7. Bekpulatov X. B., Fransiya Qurolli Kuchlarida harbiy kadrlarni tayyorlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlari//“Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali volume 2, Issue 5, 544-553 betlar, 2024. may.